

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc 03/31.12.2020. Tar.60.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

HASANOVA NARGIZA MAXSATJONOVNA

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY,
IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLARDAGI ISHTIROKI
(1991–2021-yillar Andijon viloyati misolida)**

07.00.01 - O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Hasanova Nargiza Maxsatjonovna

О‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki (1991–2021-yillar Andijon viloyati misolida).....3

Хасанова Наргиза Махсатжоновна

Участие женщин в общественно-политических, экономических и культурных процессах в Узбекистане (на примере Андижанской области в 1991-2021 годах)27

Khasanova Nargiza Makhsatjonovna

Participation of women in socio-political, economic and cultural processes in Uzbekistan (on the example of Andijan region in 1991-2021)53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc 03/31.12.2020. Tar.60.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

HASANOVA NARGIZA MAXSATJONOVNA

**O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOY-SIYOSIY,
IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLARDAGI ISHTIROKI
(1991–2021-yillar Andijon viloyati misolida)**

07.00.01 - O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Tar402. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sobirova Dilfuza To'xtasinovna
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Usmonov Baxriddin Axmedovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Shadmanova Sanavar Bazarbayevna
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024- yil « 06 » 07 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi, 129-uy. Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti binosi, 1-qavat, 108-auditoriya. Tel.: (0374) 225-73-21; faks: (0374) 225-73-21; e-mail: agsu_info@edu.uz_ Andijon davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1736 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi, 129-uy. ARM binosi). Tel.: (0374) 225-84-33; Faks: (0374) 225-88-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 19 » 06 kuni tarqatildi.
(2024- yil « 15 » 06 dagi 31 - raqamli reyestr bayonnomasi



R.T. Shamsutdinov

R.T. Shamsutdinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

M.O. Alixojiev

M.O. Alixojiev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

U.S. Abdullayev

U.S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida bugungi kundagi globallashuv jarayonida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar boshqaruv sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlar sharoitida ayollarning jamiyatdagi o'rni va roli, jamiyat hayotidagi ishtiroki mamlakatning ijtimoiy barqarorligi hamda iqtisodiy taraqqiyotida asosiy omil ekanligi ham xotin-qizlar masalasiga yangicha yondashuvlarga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan ham xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini yanada oshirishga bo'lgan ehtiyoj dolzarb masala bo'lib, bu jarayonni global miqyosda zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyatiga ehtiyoj ortayotganligi, ularning oila va jamiyatdagi maqomining yuksalib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Dunyoning ko'plab taraqqiy etgan davlatlarida yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan ayollar bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi faol ishtiroki bilan ijtimoiy-siyosiy institutlararo muloqotlarning faol subyektiga aylanib ulgurdi¹. Bugungi kunda xotin-qizlar muammolarini tadqiq etish borasida jahonning bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari hamda markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu tadqiqot markazlaridagi ilmiy izlanishlarda ayollarning jamiyat hayotidagi faol ijtimoiy kuch ekanligi, iqtisodiyotda mehnat zaxirasi, millat genofondi shakllanishining asosiy manbai, oilaviy munosabatlarda esa milliy-ma'naviy qadriyatlar an'anaviyligini ta'minlashdagi o'rni kabi imkoniyatlarini xolis baholash, xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoli, ish bilan bandligi hamda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning turli tazyiq va zo'ravonliklardan himoyalash masalalari atroflicha o'rganilmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ayollarning huquq va manfaatlarini muhofaza etish, oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish, iste'dod, qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek ularni jamiyatning to'laqonli va teng huquqli, faol a'zosiga aylantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezident Sh.M. Mirziyoyev iborasi bilan aytganda: "Bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak"². Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasida davlat tomonidan xotin-qizlarning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquqli imkoniyatlar bilan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Shu bois ham, O'zbekistonda mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish masalalariga oid siyosatning tub maqsadlarini to'g'ri anglab yetish hamda xolisona o'rganish, xotin-qizlarning jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonlardagi ishtirokini ilmiy tadqiq

¹Golden Gate University (AQSH), Western Michigan University (CША), University of Maryland (CША), British Columbia University (Канада), University of Mataram (Индонезия), Women in German Society (Германия), French-Australian Business Womens (Франция), «Женские и гендерные исследования» (Институты социологии РАН и других стран СНГ).

²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги нутқи // [https://nrm.uz/contentf?doc=600968_0%E2%](https://nrm.uz/contentf?doc=600968_0%E2%80%A2)

etish hamda zarur amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish shu kunning dolzarb masalalaridandir.

O‘zbekiston Respublikasining 2019- yil 2- sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son, 2022- yil 29- yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-68-son, 2022- yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmonlari, 2019- yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-son, 2021- yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 21- avgustdagi 703-son “Andijon viloyati xotin-qizlarini ish bilan ta‘minlash, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlarni xarakteri va mohiyatidan kelib chiqib, muammoni tahlil qilishda ularni asosan ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari.
2. Xorijiy davlat tadqiqotchilarining asarlari.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yangicha metodologiya hamda qarashlar asosida ijtimoiy fanlar sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni va rolini o‘rganishga katta e‘tibor berildi, ayollarning oila va jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy ahvoli tahlil qilinib, mavzuning u yoki bu jihatlariga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar yaratildi. Jumladan, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy-siyosiy faolliklari haqidagi dastlabki dissertatsion tadqiqot D.Alimovaga³ tegishlidir. Olimaning dissertatsiyasi O‘zbekistonda ayollar masalasi tarixi va tarixshunosligi, tarixiy tadqiqotlar masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu tadqiqot ayollar masalasidagi turli mavzularda yangi tadqiqotlarning amalga oshirilishiga ham zamin yaratdi. D.

³Алимова Д. Женский вопрос в советской историографии Средней Азии (20–80-е годы): Авт. дисс. на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1991. – 45 с.

Alimovaning ayollar masalasiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotida sovet hokimiyati yillarida ayollar va ularning jamiyatdagi o‘rni mavzusi tarixshunosligi katta xronologik va geografik doirada, yaxlit tarzda o‘rganilgan⁴.

Tadqiqotchilar D. Bobojonova, N. Jo‘rayeva, D. Sobirovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida sovet davridagi xotin-qizlar masalasi mustaqillik mafkurasi asosida ilmiy tahlil qilingan⁵. Ayollarning gender va reproduktiv huquqlarining milliy va xalqaro jihatlari G.Matkarimovaning dissertatsiyasida⁶ kompleks o‘rganilgan bo‘lsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarning jamiyat hayotidagi ishtiroki masalalari M. Irisova, N. Annayeva va M.M. Baltabayevalarning tadqiqotlarida, oilaviy munosabatlar M. Xolmatovaning dissertatsiyasida o‘rganilgan⁷. Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ayollar huquqlari va ijtimoiy mavqei masalalari F.A. Primova, R. Ubaydullayeva va V. Baumgartner, S. Safayeva, S. Ahrorova, G.J. G‘aniyeva, G.B. O‘razaliyeva, A.A. Xuseinova, M.Q. G‘afforova, D.P. Atayeva, T.K. Narbayeva kabi olimalar tomonidan tadqiq etilgan⁸.

Andijon viloyatida xotin-qizlarning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tadbirkorlik faoliyati, milliy kashtachilik, gilamdo‘zlik, do‘ppichilik mahsulotlarini yaratishi, milliy an‘analarning tiklanishi va urf-odatlarini keng targ‘ib etishda ayollarning ishtiroki kabi masalalar R. Shamsutdinov⁹ tadqiqotlarida ham keng va atroflicha yoritilgan.

⁴Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: история изучения и современные проблемы. –Ташкент: Фан, 1991. – 132 с.

⁵Бобожонова Д. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатлари (70-80-йилларнинг ўрталари): Тар.фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 230 б.; Жўраева Н. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни: Тарих фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2004. – 161 б.; Собирова Д. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40-80-йиллари): Тарих фан. номз. ... дисс. автореферати. –Тошкент, 2009. – 32 б.

⁶Маткаримова Г. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве: Автореф. дисс. ... докт-ра юрид. наук. – Ташкент, 2002. – 41 с.

⁷Ирисова М. Занятность женщин Узбекистана в условиях перехода к рыночным отношениям: Автореф. дисс. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1995. – 23 с.; Аннаева Н.Р. Аёллар тadbirkorлигининг генезиси, назарияси ва амалиёти: Фалсафа доктори (PhD) илмий дараж. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 20 б.; Балтабаева М.М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тadbirkorликни ривожлантиришдаги иштироки (1991-2017 йиллар): Тарих фан. фалсафа док. (PhD) ... дисс. автореф. – Андижон, 2019. – 26 б.; Халматова М. Оилавий муносабатлар маданиятини такомиллаштириш ва соғлом авлодни тарбиялашнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари: Фалсафа фанлари д-ри. дисс. – Тошкент, 1998. – 326 б.

⁸Примова Ф.А. Оилавий муносабатларни шакллантиришда миллий ва диний кадриятларнинг ўрни. Фалсафа фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – 133 б.; Убайдуллаева Р.А., Баумгертнер В. Хотин-қизлар ва ҳуқуқ // “Аёл ва ҳуқуқ” маърузалар тўплами. –Тошкент, 1999. – Б.10-28.; Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 158 б.; Ахорова С. Ўзбекистонда аёллар ижтимоий фаоллигини ошириш омили: Фалсафа фанл. номз... дисс. – Тошкент, 2005. – 158 б.; Ганиева Г.Ж. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи: янги ҳаёт шакли, муаммолар ва ечимлар (мустақиллик даври 1991-2005 йй.): Тар. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2006. – 159 б.; Ўразалиева Г.Б. Гендер муносабатларининг аёллар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришга таъсири (социологик таҳлил). Социология фан. номз... дисс. – Тошкент, 2006. – 147 б.; Хусеинова А.А. Фуқаролик жамияти ва аёллар. – Бухоро, 2009. – 88 б.; Гаффорова М.Қ. Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётида хотин-қизлар мавқеи. – Тошкент, 2018. – 172 б.; Атаева Д.П. Хоразм вилояти хотин-қизларининг жамият ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўрни (1991 – 2018 йиллар): Тарих фан. фалсафа док. (PhD) ...дисс. – Нукус, 2020. – 189 б.; Нарбаева Т.К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самардорлигини оширишнинг инновацион модели. Социология фанлари д-ри (DSc) ...диссертация. – Тошкент, 2020. – 239 б.

⁹Шамсутдинов Р., Мамажонов А., Матбобоев Б., Бозоров Қ. Жумабоев И. Кўхна ва навкирон Андижон. – Тошкент: Shaq, 2010. – 160 б.; Шамсутдинов Р., Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. –Тошкент: Shaq, 2013. – 592 б.

Bugunga kelib ayollarning jamiyat hayotida, xususan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi faolligi masalalari ko'plab davlatlarda tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilmoqda, tarixiy fanlar kontekstida ilmiy izlanishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, AQShning Kaliforniya shtatidagi Golden Geyt universitetida ayollar faoliyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy omillar, G'arbiy Michigan universitetida oliy ta'lim tizimidagi xotin-qizlar va ularning rahbarlik faoliyati, Merilend universitetida xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoyalashda huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ahamiyati va ijrosi, Kanadaning British Kolumb universitetida ayollar ma'naviy dunyoqarashining shakllanishida islom dinining omili kabi masalalar, shuningdek, Indoneziya (University of Mataram), Germaniya (Women in German Society) Fransiya (French-Australian Business Womens), Rossiya FA Sotsiologiya institutlarida hamda boshqa MDH davlatlarida ham "Ayol va gender tadqiqotlari" yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda¹⁰.

Xorij olimlarining tadqiqotlarida ayollarning ijtimoiy-siyosiy jabhalardagi faolligini oshirish, davlat boshqaruvi, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda tutgan o'rni va roli yuzasidan ilmiy xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu borada ilmiy izlanish olib borgan olimlardan S. Haggard, Cox E, P. Barroy, xitoylik szin-Nin sun kabi tadqiqotchilarni¹¹, MDH davlatlarida T.V. Zaslavskaya, T.V. Bendas, Ye.M. Zuykova, R.I. Yeruslanova, N. Ivanova, S.Prigojina, L. Popova kabi tadqiqotchilarni¹² ko'rsatib o'tish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning siyosiy faolligi, haq-huquqlarini himoyalash va ta'lim olish imkoniyati masalalari AQShning Gilford kolleji professori Z. Tursunova¹³, O'zbekistonda islomning qayta jonlanishi va ayollarning ijtimoiy maqomi masalalari bo'yicha tadqiqot olib borayotgan Kanadaning British Kolumbiya universiteti dotsenti Dilsora Komil (Fozilova)¹⁴ kabi olimalar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda jahon hamjamiyati tomonidan gender tengligi ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy

¹⁰Golden Gate University (AQSH), Western Michigan University (AQSH), University of Maryland (AQSH), British Columbia University (Kanada) va hokazo.

¹¹ Barroy P.J. Determinants of Economic Growth: Crosscountry Survey A. – Cambridge, MA: MIT Press, 1997. – 407 p; Cox E. Leading women. Sydney, 1996. 326 p.; Haggard S. The political Democratic Transitions. – Princeton University Press, 1995. 179 p.; Ты - победительница. Древнекитайская мудрость Сунь-Цзы для женщин, стремящихся к успеху Цзинь-Нин Цун // Подробнее на livelib.ru: <https://www.livelib.ru/book/1000644461>;

¹²Заславская Т.В. Социология экономической жизни: очерки теории (в соавторстве с Р.В. Рывкиной). – Новосибирск: Наука, 1991. –448 с.; Социетальная трансформация российского общества: Деятельностно-структурная концепция. – Москва: Дело, 2002 – 568 с.; Современное российское общество. Социальный механизм трансформации. – Москва: Дело, 2004. Бендас Т.В. Лидерство в кросс-культурных и гендерных исследованиях. – Оренбург, 2006. –294 с.; Зуйкова Е. М., Ерусланова Р. И. Феминология и гендерная политика. Подробнее на livelib.ru:<https://www.livelib.ru/book/1000183786>; Иванова Н. Что раздражает мужчин в женщинах: секреты семейного счастья. – Ростов на Дону: Феникс, 2007. – 211 с.; Пригожина С.В. Женский портрет на фоне Востока и Запада. – Москва: Вост. лит-ра, 2006. – 478 с.; Попова Л.В. Проблема самореализации одаренных женщин // Вопросы психологии. – 1996. – №2. – С.31-41.

¹³Tursunova Z. Women's Narratives: Resistance to Oppression and the Empowerment of Women in Uzbekistan. Journal of Indigenous social development. Volume 3, Issue 2 (December 2014) <http://www.hawaii.edu/sswork/jisd> <http://scholarspace.manoa.hawaii.edu/handle/10125/34168> E-ISSN 2164-9170 pp. 1-16; WOMEN'S LIVES AND LIVELIHOODS IN POST-SOVIET UZBEKISTAN: Ceremonies of Empowerment and Peacebuilding. LEXINGTON BOOKS// <https://guilford.academia.edu/ZulfiyaTursunova>.

¹⁴В США и Канаде не безразличны к Узбекистану//<https://xs.uz/ru/post/v-ssha-i-kanade-ne-bezrazlichny-k-uzbekistanu/>

taraqqiyotning omili ekanligi, ayollarning tadbirkorlik faoliyati – jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil bo‘lishi kabi masalalar keng o‘rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va faoliyati masalalari respublikamizda hamda xorijda bir qator tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsion tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonning sharqiy hududi bo‘lmish Andijon viloyati xotin-qizlarining jamiyat hayotidagi faoliyati, siyosiy hamda iqtisodiy-madaniy jabhalardagi ishtiroki kabi masalalarni qamrab olgan yaxlit dissertatsion tadqiqot yaratilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidan o‘rin olgan “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1991-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasidagi ayollarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va roli masalalarini Andijon viloyati misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Respublika hukumati tomonidan xotin-qizlarni oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish yuzasidan qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlarni o‘rganish asnosida ayollar masalasidagi davlat siyosatini tarixiy izchillikda tadqiq etish;

davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning ishtirokini kengaytirish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillaridan biri ekanligini ko‘rsatib berish;

xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik institutlarining tutgan o‘rnini tahlil etish;

Andijon viloyatida ayollarning ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyati ularning jamiyat hayotidagi mavqeyini yanada mustahkamlayotganini ochib berish;

Ilm-fan, ta’lim, sport, sog‘liqni saqlash hamda madaniyat sohasi rivoji yo‘lida viloyat xotin-qizlarining qilayotgan samarali mehnatini ko‘rsatib berish;

ayollar va oilani davlat tomonidan ijtimoiy muhofazalashning huquqiy asoslari, “Sog‘lom ona va sog‘lom bola” tamoyili negizida amalga oshirilgan ishlar ko‘lamini va uning natijalarini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida Andijon viloyati xotin-qizlarining O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotidagi ishtiroki belgilangan.

Tadqiqotning predmeti xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini oshirishda fuqarolik institutlarining ijtimoiy hamkorligi, ayollarning ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki, xotin-qizlar va oilani ijtimoiy himoyalash, onalik va bolalikni muhofazalash bilan bog‘liq ijtimoiy masalalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada xolislik va haqqoniylik tamoyillari, tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, statistik ketma-ketlik, og‘zaki tarix va ijtimoiy so‘rovnomalar kabi sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Respublikada o‘tish davri hisoblangan 1990-yillarda viloyat ayollarining ijtimoiy faolligini oshirish va huquqiy madaniyatini o‘stirishda 22 ta mavjud jamoat tashkilotlari va madaniyat muassasalari rahbarlari muhim rol o‘ynaganligi, 1995-yilda Andijon viloyatining shahar va tumanlarida 19 nafar hokim o‘rinbosari, 24 nafar mutaxassis, 1643 ta boshlang‘ich xotin-qizlar qo‘mitalari rahbarlari faoliyat yuritganligi biroq 2000-yillardan keyin Andijonning ijtimoiy-siyosiy boshqaruv jarayonlarida faol bo‘lgan ayollar sonining kamayib borganligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga Andijon viloyatidan saylangan 22 nafar deputatlar tarkibida faqat 1 nafar ayol - Jalaquduq tumani hokimi M.Egamova bo‘lganligi aniqlangan;

viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullangan ayollar 1995-yilda 291 nafar, 2000-yil 500 nafar, 2004-yil 719 nafarga yetgan bo‘lsa-da, ularning ulushi atigi 3,1 foizni (ayollar tadbirkorligi darajasi bo‘yicha respublikada 8 o‘rinda) tashkil etganligi ularning asosan faoliyatini kengaytirish imkoniyati past bo‘lgan fermerlik, oilaviy tadbirkorlik va qisman shaharlardagi xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari bilan cheklanib qolganliklari, yaratilgan imkoniyatlar ko‘lamining oshishi natijasida 2021-yilga kelib ularning soni 4000 nafardan oshganligi asoslangan;

Andijon viloyatida 1995-yil dekabr oyida “Olima ayollar” uyushmasi tashkil etilgan bo‘lsa-da, o‘tgan yillar mobaynida xotin-qizlarning ilmiy salohiyati sust rivojlanib, xususan, 2012-2013-yillarda tadqiqotchilar soni 26 nafarni tashkil etganligi, ayollarga so‘nggi yillardagi haqiqiy e‘tibor natijasida 2020-2021-yillarda 175 nafari ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib, 2018-2020-yillar davomida 6 nafar fan doktori (DSc), 14 nafar falsafa doktori (PhD) bo‘yicha dissertatsiyalar himoyasi amalga oshganligi, 2021-yilga qadar 522 nafar xotin-qiz turli davlat mukofotlari bilan taqdirlanganligi, viloyat hokimi qarori bilan “Nodirabegim” nomidagi mukofot ta‘sis etilganligi, “Ginness rekordlar kitobi”ga kirgan birinchi o‘zbek ayoli sifatida dunyoga tanilgan M.Aliyeva andijonliklarning faxri ekanligi ko‘rsatib berilgan;

1990-yillardagi onalik va bolalikni ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosati yuzasidan viloyatda hokimlikning maxsus farmoyish va qarorlari bilan ayollarni doimiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, ayollar va bolalarni yanada sog‘lomlashtirish tadbirlari uchun viloyat sarf-xarajatlar smetasining oshirilishi, Andijon viloyat televideniyesida “Shifokor” videokanali orqali targ‘ibot ishlarining yo‘lga qo‘yilishi viloyatda respublika miqyosidagi onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza etish borasidagi ijobiy yutuqlarga erishilishiga asos bo‘lganligi, bu boradagi islohotlar natijasida onalar va bolalar o‘limi darajasi (onalar o‘limi 3,2 barobar, bolalar o‘limi 3,4 barobarga) kamayishiga erishilganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan Andijon viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasining xotin-qizlar borasidagi davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishdagi tadbirlarida foydalanilgan;

dissertatsiyada ayollarning respublikamiz siyosiy jarayonlaridagi ishtiroki va iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jabhalardagi faoliyatiga doir ko'plab hujjatlar, manbalar ilmiy muomalaga kiritilgan;

respublikamizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida xotin-qizlarning tutgan o'rni va rolining tarixiy tajribasi tahlili asosida ayollarning siyosiy savodxonlik darajasini oshirish hamda jamiyatdagi mavqeyini ko'tarish, ularning huquqlarini muhofazalashga doir amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki (1991–2021- yillar Andijon viloyati misolida) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, viloyatlardagi joriy arxiv fond hujjatlari hamda davriy matbuot materiallari manbaviy asos sifatida foydalanilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosiy natijalar respublika, xorijiy ilmiy nashr va konferensiyalarda muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jamiyat taraqqiyotida ayollarga munosabat masalasi bilan bog'liq yangicha uslubiy yondashuvlar va ilmiy yo'nalishlarni yaratishga, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy, ma'rifiy sohadagi islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyatiga doir ilmiy va nazariy bilimlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy izlanish jarayonida yig'ilgan manbalar, statistik ma'lumotlar hamda sotsiologik so'rov natijalari tahlilidan xotin-qizlarga munosabat masalasi bo'yicha tadqiqotlarda, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha yaratilayotgan ilmiy tadqiqotlar, darslik hamda o'quv qo'llanmalarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Andijon viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtirokiga oid ilmiy natija, xulosa va amaliy takliflar asosida:

Respublikada o'tish davri hisoblangan 1990-yillarda viloyat ayollarining ijtimoiy faolligini oshirish va huquqiy madaniyatini o'stirishda 22 ta mavjud jamoat tashkilotlari va madaniyat muassasalari rahbarlari muhim rol o'ynaganligi, Andijonning ijtimoiy-siyosiy boshqaruv jarayonlarida faol bo'lgan ayollar faoliyati, oila va jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan gender tengligi strategiyasi ayol-qizlarning yuksalishi uchun zamin bo'layotganligi, davlat va jamiyat boshqaruvi idoralari faoliyat ko'rsatayotgan andijonlik ayollarning hokimiyat pog'onalaridagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlaridan Andijon viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasining targ'ibot tadbirlarida (Andijon viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasining 2022-yil 27-iyuldagi 01-147-son ma'lumot-nomasi) va O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan o'tkazilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2023-yil 12-apreldagi 04-01/102-son ma'lumotnomasi).

Taqdim etilgan materiallar O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda xotin-qizlarning o‘rnini, ayollar bandligini ta‘minlashda xususiy tadbirkorlik va biznesning ahamiyatini asoslab berish hamda oila va jamiyatda ayollarning rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

viloyat ayollarining zamonaviy kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi intilishlari bu boradagi yutuqlari, xususan milliy kashtachilik, gilamdo‘zlik, do‘ppichilik kabi hunarmandchilik turlari asosida milliy an‘analarning tiklanishi va urf-odatlarining keng targ‘ib etilishi orqali qadriyatlarni tiklanayotganligi, shuningdek qo‘shimcha ishchi o‘rinlarni yaratilishi natijasida ayol-qizlarning bandligi ta‘minlanayotganligi, biroq tadbirkorlar orasida ayrim xotin-qizlarning o‘z haq-huquqlarini to‘laqonli bilmasligi, sohada moliyaviy savodxonlik yetarlicha emasligi, mehnat bozoridagi gender tafovutlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-yil 18- iyuldagi 01/15-147-son ma‘lumotnomasi) hamda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo‘nalishida belgilangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ‘iboti” 8-bandi “Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2023-yil - “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib vazirlik va idoralarning ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish” mavzusidagi targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan samarali foydalanilgan. (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil 17-apreldagi 151-son ma‘lumotnomasi).

xotin-qizlarni qo‘llab - quvvatlash yuzasidan olib borilgan davlat siyosati natijasida ilm-fan, ta‘lim, sport va madaniyat hamda sog‘liqni saqlash sohalarida ayollar ulishi o‘sish dinamikasi, global muammolarni hal etishdagi tadqiqotchi ayollarning ilmiy loyihalari, so‘nggi IT texnologiyalarda erishayotgan yutuqlari, qizlarning ta‘lim olishiga yaratilayotgan imkoniyatlar, xususan oliy ta‘limga qizlarning kirish imkoniyatlarining oshirilishi, ular uchun foizsiz ta‘lim kreditlarini joriy qilinishi, shuningdek sohadagi ayrim muammolarning ham borligi va globallashuv davrida yoshlarning, xususan, qizlarning tarbiyasiga ommaviy madaniyatning, oiladagi nosog‘lom muhitning salbiy ta‘sirlari, ayollarga nisbatan o‘tkazilayotgan tazyiq va zo‘ravonliklar, ular orasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik holatlarining ortib borayotganligi, odam savdosi, tashqi va ichki migratsiyalarda ayollar sonining ortayotgani va mavjud muammolarni bartaraf etishdagi davlat siyosatining kuchaytirilishi, sog‘lom turmush masalasining zarurati, viloyat xotin-qizlarining turmush tarzida uchrayotgan ma‘lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” teleradiokanali” AJning “Ma‘naviyat bosh muharriyati”, “Tok-shou” va interaktiv teleloyihalar bosh muharriyati tomonidan “Yoshlar yetakchisi bilan bir kun”, “Renessans yoshlari”, “Yangi O‘zbekiston yoshlari” kabi ko‘rsatuvlar va roliklarni tasvirga olish jarayonida keng foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” teleradiokanali”

Aksiyadorlik Jamiyatining 2023-yil 19-apreldagi №14-02-50 sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalari asosida teletomoshabinlar andijonlik ayol-qizlarning faoliyati haqidagi ko'plab yangi ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 6 ta xalqaro konferensiya va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprotatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Jumladan, 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma (hammualiflikda), O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 9 ta, jumladan, 3 tasi respublika, 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, ishning aprotatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Istiqlol yillarida xotin-qizlar ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirishning dolzarb ahamiyati**" deb nomlangan birinchi bobida Andijon viloyati xotin-qizlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki, ular ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik institutlarining ijtimoiy hamkorligi, ayollarning tadbirkorlik va fermerlik harakatidagi faoliyati o'rganilgan. Birinchi bobning birinchi paragrafida mustaqillik yillaridagi xotin-qizlarga doir davlat siyosatining mazmun-mohiyati bu borada qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosi Andijon viloyati xotin-qizlari hayoti misolida o'rganilgan. Respublikada o'tish davri hisoblangan 1990-yillarda viloyat ayollarining ijtimoiy faolligini oshirish va huquqiy madaniyatini o'stirishda 22 ta mavjud jamoat tashkilotlari va madaniyat muassasalari rahbarlari muhim rol o'ynagan. Xususan, viloyat xotin-qizlar qo'mitasi raisi T.Sodiqova, viloyat kasaba uyushmalari birlashmasi raisi M.Muzaffarova, urush, mehnat va qurolli kuchlar faxriylari viloyat kengashi raisi T.Karimova, viloyat sudi raisi O.Haydarova, viloyat nafaqa jamg'armasining boshlig'i K.Asranqulova shular jumlasidandir¹⁵.

1995- yil 16- noyabrda "O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar masalalari bo'yicha konsepsiya" ishlab chiqilgan edi¹⁶. 1995- yilda Andijon viloyatining shahar va tumanlarida 19 nafar hokim o'rinbosari, 24 nafar mutaxassis, 1643 ta

¹⁵Andijon viloyat davlat arxivi (keyingi o'rinlarda AVDA), 4141-fond, 1-ro'yxat, 26-yig'ma jild, 7-varaq.

¹⁶O'z MA. M-69-fond, 1-ro'yxat, 88- yig'majild, 53- varaq.

boshlang'ich xotin-qizlar qo'mitalari rahbarlari faoliyat yuritgan. Viloyatda istiqomat qilgan 2000,4 ming aholining 1013,1 nafarini, ya'ni 50 foizini ayollar tashkil etgan¹⁷. Andijonning ijtimoiy-siyosiy boshqaruv jarayonlarida faol bo'lgan, hokimlik lavozimlarida mehnat qilgan rahbar ayollardan biri, "Shuhrat" medali, "Fidokorona mehnatlari uchun" ordeni, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimi" unvoni sohibasi Jalaquduq tumani hokimi M.Egamovning mehnat faoliyatini alohida e'tirof etish kerak¹⁸. 1999- yil "Ayollar yili"da xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan keng miqyosli ishlar qatorida ularning ijtimoiy himoyasiga e'tibor yanada kuchaytirildi¹⁹. Shuningdek, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi²⁰ va Nizomi qabul qilindi²¹. 2000- yildan 2022- yilgacha Andijon viloyatida 28 nafar iqtidorli, iste'dodli xotin-qizlar mazkur davlat mukofotiga sazovor bo'ldi²². Shuningdek, 2000- yili viloyat hokimining qarori bilan "Nodirabegim" nomidagi viloyat mukofoti ta'sis etildi va ilg'or xotin-qiz vakillaridan 5 nafariga har yili xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida berib borilishi belgilandi²³. 2021- yilga qadar jami 522 nafar xotin-qiz turli davlat mukofotlari bilan taqdirlandi²⁴.

Ma'lumki, xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishning eng maqbul yo'li ularning siyosiy partiyalardagi ishtiroki bilan bog'liq. Xususan, 2021- yilda Andijon viloyatida xotin-qizlarning siyosiy partiyalardagi ishtirokini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zLiDeP a'zolaridan 32876 nafari (48,3%), O'zbekiston XDP a'zolaridan 22999 nafari (50,2%), "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi a'zolaridan 13943 nafari (52%), "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi a'zolaridan 19788 nafari (51,2%), O'zbekiston Ekologik partiyasi a'zolaridan 19651 nafari (50%) ayollar bo'lgan²⁵.

1994- yilda Oliy Majlisga bo'lib o'tgan saylovda deputatlarning atigi 6 foizini xotin-qizlar tashkil etgan. Andijon viloyatidan saylangan 22 nafar deputatlar tarkibida faqat 1 nafar ayol - Jalaquduq tumani hokimi M.Egamova bo'lgan²⁶. 2014- yildagi saylovlardan so'ng 24 nafar yoki 16 foiz xotin-qizlar Qonunchilik palatasida deputat sifatida faoliyat ko'rsatdi²⁷. Mazkur saylov natijalariga ko'ra Andijon

¹⁷AVDA, 4141- fond, 6-ro'yxat, 139-yig'majild, 2-varaq.

¹⁸AVDA, 6- fond, 115-ro'yxat, 4141-yig'majild, 4-5-varaq.

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999- yil 17- martdagi PF-2246 "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni //https://lex.uz/docs/212762?twolang=true; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 17-martdagi 117-son "O'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida" Qarori //https://www.lex.uz/ru/docs/279136?twolang=true; O'zbekiston Respublikasining 1999- yil 14- apreldagi 760-1-son "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida" Qonuni //https://lex.uz/docs/10550;

²⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999- yil 10- iyundagi "Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-2326-son Farmoni //https://lex.uz/docs/

²¹Zulfiya nomidagi davlat mukofoti to'g'risida Nizom (O'zR Prezidentining 10.06.1999 y. PF-2326-son Farmoniga 1-ilova) | Davlat mukofotlari | Davlat mukofotlari. Faxriy unvonlar. Nom berish | Davlat huquqiy tizimi asoslari | O'zR Qonunchiligi ma'lumotlar tizimi "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti to'g'risida Nizom (O'zR Prezidentining 10.06.1999 y. PF-2326-son Farmoniga 1-ilova)" | NRM.uz

²² Andijon viloyati statistika boshqarmasi joriy arxivi, 2021- yil ma'lumotlari.

²³ Nodirabegim nomidagi viloyat mukofoti ta'sis etildi // Andijonnoma, 2000-yil 8- mart.

²⁴ Andijon viloyati xotin-qizlar qo'mitasi joriy arxivi, 2021-yil ma'lumotlari.

²⁵ Andijon viloyatida 2019-2021- yillar davomida siyosiy partiyalar a'zolaridan xotin-qizlar ulushi haqida ma'lumot. 3.5 jadval. Andijon viloyati xotin-qizlar qo'mitasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2022.

²⁶ AVDA, 4141-fond, 6-ro'yxat, 115-yig'majild, 1-varaq.

²⁷ https://saylov.uz/uz/docs/2014-yil-21-dekabr

viloyatidan M.E.Dadaxodjayeva Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati²⁸, T.O'Yo'ldasheva²⁹ Senat a'zosi bo'lgan³⁰.

Yangi O'zbekiston sharoitida siyosiy partiyalarning faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida so'nggi besh yil mobaynida milliy saylov qonunchiligida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, Saylov Kodeksi qabul qilindi. Saylov qonunchiligiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, Oliy Majlis dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Ya'ni 2019-yili bo'lib o'tgan saylov natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini ayollar tashkil etdi, shundan 6 nafari, Andijon viloyatidan saylandi³¹. Saylov natijasiga ko'ra Andijon tumani Orol mahalla fuqarolar yig'ini raisi M.G'aniyeva (O'z XDP) senator hisoblanadi. Oliy Majlis quyi palatasiga saylangan 14 nafar andijonlik deputatlarning 6 nafari, ya'ni 49 % ini ayollar, yani Ye.V.Babenko, U.A.Zakirova, O.T.Ma'mirova O.I. Otaxonova, T.K.Muratova, M.H.Adxamjonovalar tashkil etdi³². Tahlil qilinsa, Parlamentda ayollar ulushi sezilarli darajada ortib borgan, xususan Andijondan 1994-yili 1 nafardan 2019-yili 7 nafarga yetgan. Parlamentlararo ittifoqning 2021-yilgi "Siyosatdagi ayollar" xalqaro reytingida O'zbekiston xorijiy mamlakatlar orasida 45-o'rinni egallab, top-50 talikdan joy oldi.

Ikkinchi paragrafda ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik institutlarining ijtimoiy hamkorligi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari misolida o'rganilgan. 1991- yil 27- dekabrda O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi tashkil topdi³³. 1995- yili rasman hokimiyat tuzilmasiga kiritildi³⁴. Mazkur jamoatchilik uyushmalari faoliyati orqali viloyat ayollarining ijtimoiy faolligini oshirish, iqtisodiy bandligini, ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, ma'naviy-ahloqiy tarbiya ishlari borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, samarali natijalarga erishib kelindi. Biroq, arxiv hujjatlarida viloyat xotin-qizlar qo'mitasining ijobiy faoliyati bilan birga, ayrim tumanlarda (Andijon, Paxtaobod, Shahrixon tumanlari va Xonobod shahrida) bu yo'nalishdagi ishlar qoniqarsiz bo'lganligi ham qayd etilgan³⁵. 1995- yilning 5 oyi davomida viloyat hududida 21 nafar xotin-qizlarning o'zini o'zini o'ldirish va o'ldirishga harakat qilish holatlari aniqlangan bo'lsa³⁶, o'sha yilning 11 oyida ayol-qizlar orasida 369

²⁸ Xalq so'zi. 2014-yil 26-dekabr №254.

²⁹ Yo'ldosheva T.O'. Xo'jaobod tumanidagi Shahrixonsoy mahalla fuqarolar yig'inidan "Do'stlik" ordeni sohibasi bo'lgan.

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senat a'zolarini ro'yxatga olish to'g'risida // Andijonnomma, 2015-yil 17-yanvar.

³¹ <https://www.saylov.uz/uz/docs/2019-jil-22-dekabr-ozbekiston-respublikasi-olij-mazhlisi-qonunchilik-palatasi-deputatligiga-sajlov>

³² <https://parliament.gov.uz/deputies>

³³ O'z MA, M-37 fond, 1-ro'yxat, 2565-ish, 90-varaq.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1995-yil 2-martdagi №PF-1084 Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/>

³⁵ AVDA, 4114-fond, 6-ro'yxat, 139-yig'majild, 5-8-varaqlar.

³⁶ AVDA, 4141-fond, 6-ro'yxat, 141-yig'ma jild, 3-varaq.

nafari jinoyatga qo‘l urgan. Shundan 3 nafari qotillik bilan bog‘liq jinoyat bo‘lgan³⁷. 500 ga yaqin ayol-qiz yengil tabiat ayollar ro‘yxatiga olinib, 9 nafariga jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan³⁸. Bu esa viloyat xotin-qizlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish, nikohni bekor qilish, erta turmushning oldini olish borasidagi ishlar qoniqarli olib borilmaganini ko‘rsatadi. Ma‘lumki, bu kabi muammolarni oldini olish maqsadida 2004- yili fuqarolar yig‘inlarida diniy ma‘rifat va ma‘naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi³⁹. Viloyatdagi 882 ta mahallada xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini yaqindan o‘rganish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi⁴⁰. Biroq, qo‘mitaning moliyaviy imkoniyatlardagi yetishmovchilik, tadbirlarga keng e‘tibor berilgani holda ayollar muammolariga aniq maqsadli va manzilli yondashuv mexanizmlarining yetishmaganligi, ish hajmiga shtatlarning nomuvofiqligi, aksariyat mutaxassislarining tajribasizligi va ma‘lumot darajasining yetarli emasligi ish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada ayollar o‘rtasidagi bandlik muammosi, oilaviy ajralishlar ko‘payishi yuz berib, hatto ichki va tashqi migratsion jarayonlarda ayollar ishtiroki o‘sib bordi. Xususan, 2021- yili viloyatning 1mln. 544 ming 181 nafar ayollaridan 54 ming 37 nafari tashqi migratsiyada, 20 ming 267 nafari ichki migratsiyada ishtirok etgan⁴¹. 2021- yilda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 477 tadan 830 taga ortib, bu umumiy jinoyatlarning 12 foizini tashkil etgan⁴². Shu boisdan ham Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalasi eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. 2022- yil mart oyidan boshlab Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi⁴³ alohida tashkil etildi.

Ma‘lumki 2000- yilda Andijon bo‘yicha ayollar NNTlari soni atigi 4 ta, ya‘ni 4,4 foizni tashkil etgan⁴⁴ bo‘lsa, hozirda viloyat adliya boshqarmasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan 362 ta nodavlat notijorat tashkilotlardan 26 tasi ayollar tashkiloti hisoblanadi⁴⁵. Jumladan 1998- yil 4- mayda tashkil etilib, 1999- yil 27- fevralda

³⁷ AVDA, 4141-fond, 6-ro‘yxat, 139-yig‘majild, 15-varaq.

³⁸ AVDA, 4141-fond, 6-ro‘yxat, 139-yig‘majild, 18-varaqlar.

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004- yil 25- maydagi PF-3434-son “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/214651>;

⁴⁰ “Faxriy ayollar” uyushmasi (M.Egamova), “Huquqshunos ayollar” uyushmasi (O.Nasretdinova), “Ijodkor ayollar” uyushmasi (H.Qo‘chqarova), “Ilm-fan va ayol” uyushmasi (Sh.Yusupova), “Ayol va salomatlik” uyushmasi (S.Ahmadjonova), “Ixtirochi ayollar” uyushmasi (F.Nosirova), “Qizlarjon klubi” (O.Ibragimova) kabi uyushmalar hamda shahar huquqni himoya qilish organlari bilan hamkorlikda ayollarning siyosiy ongini, ma‘naviy-ma‘rifiy hamda huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida turli “Nafosat”, “Ayol va siyosat”, “Navbahor” klublarida “Ayol va huquq”, “Davlat, oila va jamiyat” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. Prezident devoni arxivi Andijon viloyat bo‘limi. 4125-fond, 4-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 5-varaq.

⁴¹ 2022-yil holatiga ko‘ra vodiyda birinchi o‘rinda Andijon turmoqda, ya‘ni 48 ming nafar ayol-qiz migratsiyada, bu ko‘rsatkich, Farg‘onada 30 mingtani, Namanganda 11 mingtani tashkil etgan. <https://kun.uz/news/2022/05/20/vodiylik-migrant-ayollar-soni-100-mingga-yaqinlas'hmoqda-chora-bormi?>

⁴² Xususan 2021-yili viloyatda jinoyat sodir etgan ayollarning 206 nafarini (18-30 yoshli) yoshlar tashkil etgan, ular orasida 127 nafar ayol ishsizlik oqibatida, 61 nafari oilaviy kelishmovchilik oqibatida, 58 nafari moddiy yetishmovchilik oqibatida, 3 nafari rashk tufayli, 37 nafari ehtiyotsizlik oqibatida, 1 nafari mast holatda, qolgan 581 nafari boshqa sabablarga ko‘ra jinoyatga qo‘l urgan. Andijon viloyatida 2019, 2020 va 2021- yillarning 12 oyida sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risida raqamli ma‘lumot. 11.01.2022-yil. Andijon viloyat joriy arxiv ma‘lumotlari.

⁴³ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.03.2022 y., 07/22/146/0172-son.

⁴⁴ Asminkin Ya.P. O‘zbekiston ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B.11.

⁴⁵ Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat reyestri // <https://minjust.uz/uz/interactive/reestr-nocommerce/>

ro'yxatdan o'tgan "Madad" ishonch markazi viloyatdagi dastlabki nodavlat tashkilotlardan⁴⁶. Tadbirkor G.Azimova 2010-yilda imkoniyati cheklangan ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida pazandalik va tikuvchilik markazini ochgan. Viloyatda ayollar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy qo'llab quvvatlash maqsadida yana ko'plab shunday o'ndan ortiq hududiy nodavlat tashkilotlar⁴⁷ tashkil etilib minglab ayollarning bandligini ta'minlagan⁴⁸.

Uchinchi paragrafda Andijon viloyati ayollarining tadbirkorlik va fermerlik harakatidagi ishtiroki o'rganilgan. Andijon viloyatida 1995- yil 25- avgustda "Tadbirkor ayol" uyushmasi viloyat bo'limi tuzilgan⁴⁹. Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan ayollar viloyatda "Iqtisodiyotni barqarorlashtirish yili" deb nomlangan 1995- yili 291 nafar bo'lgan bo'lsa, 1996- yili 400 nafarga yetgan, 2000- yilga kelib, uyushma a'zolarining soni 500 nafarga yetgan⁵⁰. 2004- yilda viloyat bo'yicha 719 nafar ayollar tadbirkorlik sohasida korxonalar rahbari sifatida faoliyat yuritgan va bu 3,1 foizni tashkil etgan, ayollar tadbirkorligi darajasi bo'yicha respublikada 8 o'rinda bo'lgan⁵¹. Nargiza Mirzaalimova rahbarligidagi "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi hududiy bo'linmasi safida 2021- yilda 1 ming 700 nafarga yaqin faol va ilg'or tadbirkor ayol birlashgan. Ularning 401 nafarini yosh tadbirkor, 367 nafarini yakka tartibdagi, 112 nafarini oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi, 218 nafarini fermer, 554 nafar ishlab chiqarish yo'nalishida ish olib borayotgan xotin-qizlar tashkil etgan⁵².

O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasi Andijon viloyat hududiy bo'limi agrar sohada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning jamiyatda barqaror rivojlanishiga ko'mak berishga xizmat qilyapti⁵³. 2006- yilda Oltinko'l tumanidagi "Oltin-ko'l vodiya gulshani" fermer xo'jaligi rahbari sifatida o'z kasbini ulug'lagan, paxtachilikda o'ziga xos "Andijon maktabi"ni yaratgan mirishkor dehqonlardan biri S. Abdullayeva ko'p yillik samarali mehnatlari uchun davlatimiz tomonidan 2005- yilda "Do'stlik" ordeni, 2008- yilda "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan

⁴⁶ Ko'rsatilgan asar. – B. 52.

⁴⁷ "Mehrimiz sizga" ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy huquqiy qo'llab-quvvatlash markazi (X.Mirzarahimova), "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi Andijon viloyat bo'linmasi (N.Mirzaalimova), "Asr ayoli" Andijon ayollarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uyushmasi (D.Qadirova), O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasi Andijon viloyat hududiy bo'limi (G.Karimova), tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi ayollar kuchini birlashtirish maqsadida tuzilgan "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi Andijon viloyati Andijon tuman hududiy bo'linmasi (O.Saidova), Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi (Z.Ismoilova), viloyatda eshitish va gapirishda kamchiligi bor fuqarolarni birlashtirish, eshitishi buzilgan fuqarolarni fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan O'zbekiston Karlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi (Z.Sobirova), Andijon viloyati "Hamroh" nodavlat notijorat tashkiloti (G.Yuldasheva) demokratik jamiyat tuzish uchun jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotida Andijon viloyati yoshlarini faollashtirish orqali ularni holatini yaxshilash maqsadida faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Andijon viloyati hududiy bo'linmasi joriy arxivi, 2022-yil ma'lumotlari.

⁴⁸ Нодавлат ташкилотларга кўмак. // Жаннатмакон. – Тошкент, 2011. – Махсус сон. – Б 57.

⁴⁹ AVDA. 4141-fond, 6-ro'yxat, 139-yig'ma jild, 8-varaq.

⁵⁰ O'zMA. M-37 fond, 1-ro'yxat, 2559-ish, 133-varaq.

⁵¹ Davlat statistika qo'mitasining 2004-yil ma'lumotlari.

⁵² "Tadbirkor ayol" ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'limining joriy arxivi. 2016-yil ma'lumotlari.

⁵³ O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Andijon viloyati hududiy bo'linmasi joriy arxivi, 2022-yil ma'lumotlari.

mukofotlandi⁵⁴. Xullas, o'rganilayotgan davrda viloyat xotin-qizlarining tadbirkorlik va fermerlik harakatidagi ishtiroki ularning iqtisodiy mustaqilligi va oilalar farovonligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Andijon viloyati xotin-qizlarining madaniy-ma'rifiy jarayonlardagi ishtiroki”** deb nomlanib, unda Andijon viloyati ayollarining ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport sohasi hamda ilm-fan rivojiga qo'shayotgan hissasi yoritilgan. Ushbu bobning birinchi paragrafida ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport sohasidagi viloyat ayollarining o'rni tadqiq etilgan. Xususan, 1992- yili viloyatda 4 ta litsey va 4 ta gimnaziya mavjud bo'lgan bo'lsa, 1998- yilda ularning soni 56 taga yetgan. Bu esa, viloyat yoshlari, jumladan, qizlarning yoshlikdan zarur bilim va ko'nikmalar olishiga imkoniyat yaratgan. Viloyatda ko'plab iqtidorli qizlar nomdor davlat stipendiyalari sovrindorlari hisoblanadi⁵⁵. So'nggi yillarda davlat tomonidan ilm olishga ishtiyoqi yuqori bo'lsa-da, biroq iqtisodiy imkoniyati yetishmayotgan ehtiyojmand oila qizlariga ham oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishida imtiyozlar yaratib berilmoqda⁵⁶.

Viloyatda ta'lim sohasi rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab ayol-o'qituvchilar faoliyat yuritishadi. Xususan, Andijon shahar 27 - o'rta maktabning tarix fanidan tajribali o'qituvchi O.Omonova⁵⁷, Shahrixon tumani 59-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, “Shuhrat” medali sohibasi, xalq ta'limi a'lochisi A.Usmonova⁵⁸, Ulug'nor tumani 1-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi M.Mamadaliyeva⁵⁹, Asaka tibbiyot kolleji o'qituvchisi, 2013- yil respublika “Yil ayoli” tanlovining g'olibi N.Sattorova, viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi direktori M.Abdullayeva kabilar o'z mehnat faoliyati bilan viloyatda hurmatga sazovor bo'lishgan⁶⁰.

Viloyat xotin-qizlari madaniy taraqqiyot va aholining madaniy saviyasini yuksaltirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelishmoqda. Viloyatdan nafaqat respublika, balki jahon miqyosida taniqli bo'lgan O'zbekiston xalq artistlari

⁵⁴ <https://xs.uz/uzkr/post/Siyosatxon+Abdullayeva>

⁵⁵ 2007-yili Andijon mashinasozlik instituti “Boshqaruv” fakulteti talabasi R.Rustamova Ta'lim yo'nalishida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, talaba I.Hakimova esa Beruniy nomidagi Davlat stipendiyasi sovrindori bo'lganlar. “Transport va logistika” fakulteti, “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi” yo'nalishi 3-kurs talabasi M.Ibrohimova 2019-yili, “Avtomobilsozlik” fakulteti, “Metrologiya standartlashtirish mahsulot sifati menejmenti” yo'nalishi, 4-kurs talabasi O.Komilova (Sotvoldiyeva) 2021-yili, “Menejment” yo'nalishi, 3-kurs talabasi M.Ergasheva va “Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish” yo'nalishi, 4-kurs talabasi S.Abduxalilovalar 2022-yili akademik M.A.Xadjinova nomidagi stipendiya sohibi bo'lganlar. //Andijon mashinasozlik institutining ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi joriy arxivi ma'lumotlari; 2006-yil Andijon davlat tibbiyot institutining iqtidorli magistri N.Mamajonova, 2012-yil U.Ganiyeva O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sovrindori bo'lishgan. Oliy hamshira ishi fakultetining talabasi M.Rahmonova 2013-2014- o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari qo'mitasi stipendiyasi g'olibi bo'lgan// Andijon davlat tibbiyot institutining ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi joriy arxivi, 2006-2014-yil ma'lumotlari.

⁵⁶O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.06.2020-yildagi 402-son qarori bilan “Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsianoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom”// <https://www.norma.uz/uz/>

⁵⁷ Неъматжоннова М. Ўқитувчи шундай бўлса... // Андижоннома, 1991 йил 17 сентябрь.

⁵⁸ Ёқубова Н. Қадри баланд ўзбек аёлин. // Андижоннома, 2012 йил 6 март.

⁵⁹ Шоюсупов А. У устоз. // Андижоннома, 2016 йил 5 март.

⁶⁰ Қадри баланд бўлинг. // Андижоннома, 2014 йил 5 март.

U.Qosimova, Sh.Rahimova, X.Aminova⁶¹, M.Ubaydullayeva, Q.Burnasheva, A.Aminova, artistlar N.Hakimova, M.Madrahimova, Q.Turg'unboyeva, Sh.Tojiboyevalar ijodini alohida qayd etish lozim⁶². Ustozlar ko'magida X.Husanova, Z.Haydarova, O.Mahmudova, M.Yo'ldosheva singari iste'dodli san'atkorlar yetishib chiqdi⁶³.

2018- yilda viloyatdagi mavjud 250 ta kutubxona muassasalarida jami 1070 nafar kutubxona xodimlari kitobxonlarga xizmat qilgan. Ularning 993 nafarini, ya'ni 92,8 % ni ayollar tashkil qilgan. Ularning 21 foizi oliy ma'lumotli, qolganlari esa o'rta ma'lumotga ega. Ma'lumot o'rnida shuni aytish mumkinki, ko'p yillar mazkur sohada faoliyat olib borgan, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Andijon viloyati axborot kutubxona markazi direktori Hafizaxon Karimova⁶⁴ 2010-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati sifatida O'zbekiston Respublikasining "Axborot kutubxona – faoliyati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishida faol ishtirok etgan⁶⁵.

Viloyatda sport sohasida o'z o'rniga ega bo'lgan ayollar faoliyati diqqatga sazovordir. 1993-yili respublika jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi qaroriga muvofiq, 1992- yildagi natijalarga ko'ra eng kuchli deb e'lon qilingan 28 nafar sportchilarning 1 nafari "Andijanka" chim xokkey jamoasining hujumchisi M.Usmanova ham bo'lgan⁶⁶. 2010-yil 1-aprelda qabul qilingan "Qishloq joylardagi bolalar sporti obyektlarida band bo'lgan ayol sport ustalarini mehnatini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qizlarni, ayniqsa qishloq joylardagi qizlarni sport bilan shug'ullanishga faol jalb etish, malakali, professional ayol ustoz kadrlarni tayyorlash, ularning mehnatini moddiy rag'batlantirishda muhim omil bo'ldi⁶⁷. 2015- yil natijalariga ko'ra, ularning 481 nafari respublika va xalqaro darajadagi musobaqalarda ishtirok etib, 171 ta oltin, 169 ta kumush, 141 ta bronza medali sohibi bo'lishgan. 10 nafar ayol Osiyo chempioni, 2 nafar ayol jahon chempioni, 3 nafar ayol Markaziy Osiyo davlatlarida o'tkazilgan musobaqalar chempioni darajasiga erishgan⁶⁸. Shuningdek, og'ir atletikachi, Baliqchi tumanida tug'ilgan, O'zbekiston hamda Osiyoning ko'p karra chempioni M.Nabiyeva⁶⁹, "Ginnes rekordlar kitobi"ga kirgan birinchi o'zbek ayoli sifatida dunyoga tanilgan M.Aliyeva andijonliklarning faxridir. 2021- yil holatida andijonlik 20 nafar qizlar sinxron suzish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining a'zolari hisoblanishadi⁷⁰.

⁶¹ Холмирзаев К. Й. Охунбобоев номли Андижон театри – 70 ёшда // Андижоннома, 1991 йил 29 ноябрь.

⁶² Файзибоева Р. Раҳмат, театр! // Андижоннома, 1991 йил 29 ноябрь.

⁶³ Хусанова Х. Устозлар таъзим // Андижоннома, 1991 йил 29 ноябрь.

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси Ахборотномаси. №1-2 (23-24). 2010.

⁶⁵ Парламентдаги библиограф. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси фундаментал кутубхонаси. Соҳамиз фидойилари. – Тошкент: Navro'z, 2021. – Б.3.

⁶⁶ Йилнинг энг кучли спортчилари // Андижоннома. 1993 йил 23 май.

⁶⁷ Қурбонов Ф. Хотин-қизлар жисмоний тарбиясини ривожлантириш устувор вазифа сифатида // "Хотин – қизлар спорти: имкониятлар ва истикболлар" мавзuidaги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. 2018 йил 4-5 май. – Б.14.

⁶⁸ Юнусова М. Аёлни улуғламоқ Ватанни улуғламоқдир. // Андижоннома, 2016 йил 5 март.

⁶⁹ Og'ir atletikachimiz ikki mashq natijasiga ko'ra 212 kg bilan (98, 114) 4- o'rinni egalladi // Andijon viloyati hokimligi Matbuot xizmatining rasmiy kanali.

⁷⁰ Сиддик Т. Наталья хонимнинг сув парилари // Андижоннома, 2016 йил 5 март.

Xullas, viloyat xotin-qizlari sport sohasi rivojiga munosib hissa qo‘shib, yuqori natijalarni qayd etishgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida viloyat olimlarining ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi o‘rganildi. Andijon viloyatida 1995- yil dekabr oyida “Olima ayollar” uyushmasi tashkil etilib⁷¹, T.Muhitdinova rais etib tayinlangan⁷². Andijon viloyatida ham xotin-qizlarning ilmiy salohiyati o‘ziga xos tarzda rivojlangan bo‘lib yillar davomida takomillashib ilm-fan sohasiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Xususan, viloyatda katta ilmiy xodim izlanuvchilar 2012-2013- yil oxirida 26 nafarni tashkil etgan bo‘lsa 2020-2021- yil oxiriga kelib 175 nafar xotin-qiz ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan⁷³. 2018-2020- yillar davomida viloyatda faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan 6 nafar fan doktori (DSc), 14 nafar falsafa doktori (PhD) bo‘yicha dissertatsiyalar himoyasi amalga oshirildi⁷⁴.

“Xotin-qizlar va oilani ijtimoiy muhofaza qilish masalalari” deb nomlangan uchinchi bobda xotin-qizlar va oilani ijtimoiy muhofaza qilishning huquqiy asoslari va “Sog‘lom ona va sog‘lom bola” tamoyili asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va natijalar o‘rganilgan. Mazkur bobning birinchi paragrafida bozor islohotlariga o‘tish davrida ijtimoiy sohadagi davlat siyosatining asosiy maqsadlari aholi, shu jumladan xotin-qizlarni munosib turmush sharoiti bilan ta‘minlash, kam ta‘minlangan, ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, onalik va bolalik muhofazasiga qaratilganligi ko‘rsatib berilgan. Shu maqsadda qabul qilingan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar tahlil etilgan⁷⁵. Xususan, Andijon viloyati hokimining 1994- yil 24- sentabrdagi 620-k qarori asosida viloyat hokimligi mahalla fuqarolar yig‘inlari, viloyat xotin-qizlar qo‘mitasi va jamoat tashkilotlari hamkorligida xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ayollarni kasb-hunarga yo‘naltirish choralari ko‘rilgan⁷⁶. Oilaviy qadriyatlarni targ‘ib etish va oilalar mustahkamligini ta‘minlash maqsadida “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasi viloyat, shahar, tuman tayanch punktlari qoshida “Oila va nikoh” maslahatxonalari tashkil etilgan⁷⁷.

1998- yilni “Oila yili” deb e‘lon qilinishi munosabati bilan aprel oyida “Oila ma‘naviyati–jamiyat taraqqiyoti” mavzusidagi viloyat ilmiy-amaliy konferensiyasi barcha qishloq fuqarolar yig‘inlari va mahallalarda o‘tkazilgan. Ilmiy-amaliy anjumanlar jarayonida mahalla minbarlarida mahalla oqsoqollari, faxriy onaxonlar ishtirokida tarbiyasi og‘ir bo‘lgan ayollar faoliyati muhokama qilinib, “Mahalla izzasi” yo‘lga qo‘yilgan⁷⁸. Bu esa joylarda o‘z samarasini ko‘rsatgan.

⁷¹ AVDA. 4141-fond, 6-ro‘yxat, 139-yig‘majild, 14-varaq.

⁷² AVDA. 4141-fond, 13-ro‘yxat, 130-yig‘majild, 27-varaq.

⁷³ Andijon viloyati “Olima” uyushmasi joriy arxivi. 2012-2021-yil ma‘lumotlari.

⁷⁴ Andijon viloyati “Olima” uyushmasi joriy arxivi. 2012-2021-yil ma‘lumotlari.

⁷⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-avgustdagi “Kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-938-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/196343>; Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustda “Kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 434-sonli qarori // <http://lex.uz/ru/doc/804303>.

⁷⁶ AVDA. 4141-fond, 6-ro‘yxat, 143-yig‘majild, 1-3-varaq.

⁷⁷ O‘sha yerda. 2-varaq.

⁷⁸ AVDA. 4141-fond, 13-ro‘yxat, 130-yig‘majild, 54-varaq.

“Ayollar yili” munosabati bilan 1999- yili og‘ir ishlarda ishlayotgan ayollar daromadlari darajasini oshirish, iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish kuchaytirildi⁷⁹.

2009-yil 3-avgustdagi “Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1167-son Qarori asosida viloyatning Andijon, Shahrixon, Asaka, Oltinko‘l, Bo‘z, Baliqchi tumanlarida 700 ga yaqin namunaviy uylar qurilib, oilalar uchun munosib turmush sharoitlari yaratib berilgan⁸⁰. Umuman, mustaqillik yillarida davlatning faol ijtimoiy siyosatida har bir xotin-qiz va oilaga e‘tibor qaratishga doir tizimli ishlar amalga oshirildi. Xotin-qizlar va oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslari shakllantirildi. Jumladan 1999- yil 14-apreldagi “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida”gi Qonun, 2002- yil 8-maydagi “Davlat ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi hamda “Ishlayotgan onalarga bolani ikki yoshga to‘lguncha parvarish qilish bo‘yicha har oylik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlar ayollarning ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga xizmat qildi⁸¹.

Mustaqillik yillarida “Sog‘lom ona va sog‘lom bola” tamoyili asosida onalik va bolalikni ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga qaratilgan qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi⁸². 1993- yil 23- aprel kuni “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya jamg‘armasi tashkil qilindi. 1993- yil 7- may kuni “Sog‘lom avlod” ordeni ta‘sis etildi⁸³. Andijon viloyati hokimining 1998- yil 16- iyuldagi “Andijon viloyatida tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish ishlarini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 112-F-sonli farmoyishi asosida ayollarni sog‘lomlashtirish borasida amalga oshiriladigan 20 banddan iborat tadbirlar dasturi tasdiqlangan⁸⁴. Farmoyish asosida transport vositalarida tashkil etilgan ko‘chma ayollar maslahatgohlari tomonidan viloyat shahar va tumanlarida 200 ming nafardan

⁷⁹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1999-yil 17-martdagi № PF-2246 Farmoni // <https://lex.uz/docs/212762?twolang=true>;

⁸⁰ Нодавлат ташкилотларга кўмак. // Жаннатмакон – Тошкент, 2011. – Махсус сон. –Б.14.

⁸¹ Турсунов Й., Усмонова М., Сатторова Г. Права социального обеспечения. – Ташкент, 2008. – С.76.

⁸² 1993- yil 21- mayda kuchga kirgan “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun (839-XII-son); 1996- yil 1- apreldan kuchga kirgan Mehnat kodeksi// <https://lex.uz/acts/142859>; 1998- yil 1- sentabrdan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi // <https://lex.uz/docs/104720>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 12- apreldagi “Oila kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 171-son qarori // <https://lex.uz/docs/271133>; 14- apreldagi “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida” Qonun (760-1-son) // <https://lex.uz/docs/10550>; 4- maydagi “Bolalar va ayollar gigiyenasi uchun tovarlar ishlab chiqarish va sotishni rag‘batlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 212-son qarori // <https://lex.uz/docs/296893>, 2000-yil 15- fevraldagi “Sog‘lom avlod” davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 46-son qarori; 2002- yil 25- yanvardagi “Ayollar va o‘sib kelayotgan avlod sog‘ligini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 32-son qarori, 2002- yil 5- iyuldagi “Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog‘ligini mustahkamlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 242-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/555489>; 2009-yil 13-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1096-sonli Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/1470958>, 2009-yil 1-iyuldagi “2009-2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma‘naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1144-sonli qarori shular jumlasidandir.

⁸³ AVDA, 4141-fond, 15-ro‘yxat, 187-yig‘ majild, 4-varaq.

⁸⁴ Ko‘rsatilgan manba, 5-varaq.

ziyod tug‘ish yoshidagi ayollar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. Kamqonli ayollarga 1 mln.600 ming so‘mlik tarkibida temir moddali preparatlar bepul berilgan⁸⁵. Tumanlardagi MFYlarda xotin-qizlar o‘rtasida “Sog‘lom ona va sog‘lom bola” tamoyili asosida soha mutaxassisleri ishtirokida ochiq muloqotlar tashkil etilgan, tushuntirish-targ‘ibot ishlari olib borilgan⁸⁶. 1999 yil – Ayollar yili munosabati bilan yanvar oyida Andijon viloyat televideniyesida “Shifokor” videokanali tashkil etilgan va onalik va bolalikni muhofaza etishga qaratilgan mavzularda ko‘rsatuvlar efirga uzatilgan⁸⁷. Andijon viloyati hokimining 2000- yil 6-yanvardagi 6-k sonli “Viloyatda sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish haqida”gi qarori asosida ayollar va bolalarni yanada sog‘lomlashtirish tadbirlari uchun sarf-harajatlar smetasi bo‘yicha 64.950.000.00 so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan⁸⁸. Bu kabi chora-tadbirlar natijasi onalar va bolalar o‘limi ko‘rsatkichlarining kamayib borishida o‘z ifodasini topgan⁸⁹. Umuman olganda, viloyatda onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza etish, xotin-qizlar va oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan respublika skrining hamda reproduktiv markazlar xizmatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilgan.

XULOSA

Mustaqillik yillarida Andijon viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy-madaniy va ma‘naviy jarayonlardagi ishtirokining tahlili va tadqiqi quyidagi **xulosalarga** asos bo‘ldi:

1. 2021-yil Andijon viloyatida istiqomat qilayotgan 3 mln 191 ming nafar aholining 1.544.181 nafarini ayol-qizlar tashkil etadi, shundan 694 818 nafari 30 yoshdan yuqori bo‘lgan ayollardir. Ular orasidan 9 mingga yaqin ayollar korxonatashkilot va muassasalarda rahbarlik lavozimlarida, 800 mingdan ziyodi esa ijtimoiy-siyosiy jabhalarda mehnat qilmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 6 nafar (43%), xalq deputatlari viloyat Kengashida 19 nafar (33%), shahar, tuman Kengashlarida 101 nafar (22,6%) xotin-qizlar faoliyat olib bormoqda. Viloyatdagi Bo‘ston tumanini 2021-yil avgustidan Respublikadagi 4-hokim ayol Sanobar Nosirova boshqarmoqda, viloyatda mavjud 14 tuman, 1 ma'muriy markaz (Andijon) va 1 viloyat bo‘ysunuvidagi shahar (Xonobod)da xotin-qizlar qo‘mitalari faoliyat olib bormoqda. Viloyatda 2022-yil tashkil etilgan oila va xotin-qizlar boshqarmasini Abdullayeva Gulnoraxon Ma‘rifjonovna boshqarmoqda.

Viloyatda 2021-yil holatiga ko‘ra ma'muriy – boshqaruv xodimlari tarkibida ayollar ulushi 38.7 foizni, sudyalor orasida ayollar ulushi 11.9 foizni, ayollar egalik qilayotgan firmalar ulushi 30.5 foizni, ichki ishlarda ayollar ulushi 6.3 foizni tashkil qilgan. Hozirda viloyat adliya boshqarmasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan 362 ta nodavlat notijorat tashkilotlardan 26 tasi ayollar tashkiloti hisoblanadi.

⁸⁵ Ko‘rsatilgan manba, 6-varaq.

⁸⁶ Viloyat “Olima” ayollar uyushmasi joriy arxivi, 2013-yil ma’lumotlari.

⁸⁷ AVDA, 4141-fond, 15-ro‘yxat, 187-yig‘majild, 7-varaq.

⁸⁸ Ko‘rsatilgan manba, 8-varaq.

⁸⁹ Ko‘rsatilgan manba, 3-varaq.

2. Ayollarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohasidagi faol ishtirokini ta'minlashda davlat tashkilotlari va fuqarolik institutlarining xotin-qizlar hamda oilalar manfaatlarini himoyalash borasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishdagi ijtimoiy sherikligi muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda xotin-qizlar qo'mitalari xotin-qizlarga munosabat masalasidagi davlat siyosatining bosh maqsadini to'g'ri anglab, xotin-qizlar o'rtasidagi targ'ibot-tashviqot tadbirlari orqali ularning yurtimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonida qatnashib, bilim va malakalarini oshirib borishida o'zlarining munosib hissasini qo'shmoqdalar.

3. Ayollarning tadbirkorlik harakatidagi ishtiroki iqtisodiy islohotlarga jalb etishning samarali usullaridan biri sifatida o'zini oqlamoqda. Bunda ayollar o'zlarining ishbilarmonligi-tadbirkorligi tufayli birinchi navbatda o'zining oilaviy daromadini va yashash farovonligini oshirishga erishmoqdalar. Bu esa ayollarda oilasi uchun, uning farovonligi uchun fidoyilik bilan ishlashga tayyorlik ishtiyoqini namoyon etmoqda. Yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar natijasida viloyatda tadbirkor ayollar faolligi yildan yilga oshib ularning soni 1995-yil holatiga 291 tadan 2021-yilga kelib 5545 taga ortdi. Shunday bo'lsa-da tadbirkorlar orasida gender tafovutlar mavjud.

4. Viloyat xotin-qizlari o'rtasida milliy kashtachilik, ("iroqi", "popop", "yo'rma", "to'ldirma" turlari), gilamdo'zlik ("arabi", "g'ajari", "junxurs" turlari), do'ppi mahsulotlari, qolaversa zamonaviy mahsulot (masalan ayollar va bolalar trikotaj liboslari) turlari, nafaqat mamlakat aholisiga, balki xorijiy mehmonlarga ham manzur bo'lmoqda, xorijiy hamkorlar bilan tuzilayotgan shartnomalar asosida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu ayollar mehnat bandligini ta'minlashda, oilalarning moddiy sharoitini yaxshilanishida muhim omil bo'lmoqda. Viloyatda 2 mingga yaqin ayollar hunarmandchilik faoliyati bilan, jumladan do'ppido'zlik hunari bilan 1100 dan ortiq xotin-qizlar shug'ullanadi.

5. Xotin-qizlarning jamiyatda teng huquqliligi eng avvalo ularning ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish, ularning ilmiy salohiyatini ko'tarish, ma'naviy-madaniy sohalarda xotin-qizlar o'rnini oshirish, xotin-qizlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishni kengaytirish davlat siyosatida muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. Natijada 2021-yil holatiga ko'ra jami 718 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida qizlar ulushi 64338 nafar (49.9% foizni), mavjud 789 maktabda o'quvchi qizlar 278516 nafarni (48.8% foizni), mavjud o'rta maxsus ta'lim muassasalarida talaba qizlar 15325 nafarni (50,1% foizni), oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlar 23219 nafarni (44.7% foizni) tashkil qilmoqda.

Biroq olingan sotsiologik so'rovnomalar va tahlillar natijasida qizlarning ta'lim olishiga bo'lgan hududdagi etnomadaniy to'siqlar hali ham mavjud ekanligini ham ta'kidlab o'tish kerak.

6. O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish uchun yaratilgan shart-sharoitlar natijasida olim ayollar safi kengayib, fan doktorlari (DSc) 18 nafarni va fan nomzodlari (PhD) 177 nafarni tashkil etib, ayollar ilmiy salmog'i 45.8%ni tashkil etmoqda. Biroq olim ayollarning asosiy salmog'i Toshkent shahriga to'g'ri kelayotganini inobatga olgan holda globallashtirish sharoitida jahon

ilm-fani bilan tengma-teng raqobatlashish darajasiga erishish uchun eng avvalo ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanayotgan olimlar ayollar mehnatini rag'batlantirish mexanizmini shakllantirish hamda tadqiqotchi ayollar safini kengaytirishda ularni o'quvchi va talabalik chog'laridan ilmiy izlanishga jalb etib, ularda malaka va ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Zero, bugungi kunda ilmiy, dunyoqarashi keng ayol jamiyat taraqqiyotining poydevoridir.

7. Mamlakatda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq hukumatning faol ijtimoiy siyosatida har bir xotin-qiz va oilaga e'tiborni qaratishga doir tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Oila va jamiyat farovonligini ta'minlashda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ayollarning mehnat bandligini ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Ayollar va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning davlat mexanizmi, huquqiy asoslari shakllantirildi. Xususan, Andijon viloyatida mehnat bilan bandlikda ayollar ulushi 40 foizga yetkazildi. Biroq, ayollar orasida mavjud sharoitlardan unumli foydalana olmaslik, oiladagi yetishmovchilik, farzandlar uchun sharoit yaratish zarurati kundan-kunga oshayotganligi, ehtiyojlarning ortayotganligi, munosib ish o'rinlarining yo'qligi, aksariyat oilalarda asosiy mas'uliyat ayol kishiga yuklanayotganligi sabab 2021-yil viloyat ayollarining 54037 nafari tashqi migratsiyada, 20267 nafari ichki migratsiyada ishtirok etgan, 6 ming 249 nafari salomatligi tiklash jarayonida (muomalaga layoqatsiz, ruhiy kasal va uzoq davolanuvchi kasalliklar bilan turli shifoxonalarda), 38 nafari jazoni ijro etish muassasasida ekanligi aniqlangan. 2021-yilda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 477 tadan 830 taga ortib, bu umumiy jinoyatlarning 12 foizini tashkil etgan. Shu bois bu borada olib borilgan islohotlar ko'lamini yanada kengaytirish, belgilangan vazifalarni o'z o'rnida to'g'ri va tizimli bajarishga jiddiy e'tibor qaratish kerakligini xulosa qilish mumkin.

8. Umume'tirof etilgan shior "Sog'lom ona-sog'lom bola" tamoyili mohiyatiga ko'ra aholini jipslashtiruvchi va safarbar etuvchi murojaat bo'lib, davlat hamda jamiyat darajasiga ko'tarilgan ustuvor vazifaga aylandi. Sog'lom bolani voyaga yetkazishda onalar salomatligini mustahkamlashga e'tibor qaratish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, tug'ma nuqsonlar bilan tug'ilishning oldini olish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. Oilalarning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga tahdid solayotgan erta tug'ruqlar, onalar va go'daklar o'limi, nogiron farzand tug'ilishi, nikohdan ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olish borasida keng targ'ibot-tashviqot tadbirlari olib borildi. Mazkur tadbirlar tibbiy madaniyatni yuksaltirish, sog'lom bolani tarbiyalash, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Natijada o'tgan davrda aholi salomatligi sezilarli darajada mustahkamlandi, onalar o'limi – 3,2, bolalar o'limi – 3,4 barobar kamaydi, o'rtacha umr ko'rish darajasi erkaklarda 66 yoshdan 74 yoshgacha, ayollar o'rtasida esa 76 yoshgacha uzaydi. Ta'kidlab o'tish joizki, World Happiness Index" ("Dunyoning eng baxtli mamlakatlari") yangi reytingida O'zbekiston 158 ta mamlakat orasida 44-pog'onada, Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida esa birinchi o'rinda qayd etilgan bo'lib, Janubiy Koreya, Yaponiya, Italiya, Malayziya va boshqa davlatlarni ortda qoldirgan. Bundan tashqari, bizning mamlakatimiz "baxt

indeksi”ning har yilgi o‘shish ko‘rsatkichida birinchi o‘ntalik davlatlari qatoridan o‘rin oldi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bugungi kunda tibbiyot va ta’lim ijtimoiy sohalarining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, biroq ularga berilayotgan oylik maosh boshqa kasbga to‘lanadigan maoshga nisbatan past ko‘rsatgichga ega. Bu esa bu sohalarda rivojlanishni sekinlashtirishga olib kelishi tabiiy. Yaxshi mutaxassislarning boshqa kasbni tanlashiga ham olib kelishi hech gap emas.

9. To‘liq bo‘lmagan oiladagi nosog‘lom ma’naviy muhit, xotin-qizlarga nisbatan turli tazyiq va zo‘ravonliklar, moddiy va ma’naviy yetishmovchilik, farzandsizlik, virtual zamonda oila qurishga intilish, globallashuv davrida ommaviy madaniyatning ta’siri, oilaviy munosabatlarga yengil qarash holatlari sabab viloyatda oilaviy ajrimlar soni keskin ortgan. Xususan 2000-yil 1086 tadan, 2021-yilga kelib 3945 taga ortgan. Bu salbiy holat respublikaning boshqa hududlariga nisbatan yuqori bo‘lib, 2020-yili Toshkent shahridan keyingi 2-o‘rinni egallagan. Oilaviy ajralishlarni oldini olish, oilalar mustahkamligini ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish maqsadida, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlari hayotga tatbiq etildi. Xususan, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 3384 nafar xotin-qizlar “Ayollar daftari”ga kiritilgan bo‘lib, ularning 410 nafari kam ta’minlangan, 108 nafari nogironligi bo‘lgan, 603 nafari ijtimoiy himoyaga muhtoj, 44 nafari yakka-yolg‘iz, 333 nafari doimiy ishsiz, 62 nafari karantin tufayli ishsiz qolgan, 8 nafari og‘ir epidemiologik hududlardan qaytarib kelingan, 100 nafari boquvchisini yo‘qotgan xotin-qizlardan iborat bo‘lgan 992 nafar ayollarning ijtimoiy muammolari hal etilib, “Ayollar daftari”dan chiqarilgan, 279 nafar xotin-qizlarga salomatligini tiklash va davolanish uchun tuman, shahar tibbiyot birlashmalariga order olib berilgan. 545 nafar ayollarning bandligi ta’minlangan, 479 nafar xotin-qizlar ishga tavsiya qilingan. 736 nafar ayollarga homiyar tomonidan uy-joy ta’minlash va oziq-ovqat ta’minoti bo‘yicha yordam ko‘rsatilgan.

Tadqiqot ilmiy xulosalari asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Xotin-qizlarning ijro hokimiyati organlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish, ularning quyi lavozimlardan eng yuqori lavozimlargacha ko‘tarilishini ta’minlaydigan omillar, mexanizm va vositalarni yanada takomillashtirish;

2. Ayollar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularni tashkilotlardagi mehnat faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ayollar bandligi masalasiga jiddiy e’tibor qaratish;

3. Ayollarning qadimdan shug‘ullanib kelgan milliy hunarmandchilik an’analarini qayta tiklab uni modernizatsiyalashtirish imkoniyatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish, buning uchun yirik korxonalar bilan hamkorlik dasturlarini amaliyotga joriy etish va oilalarning turmush sharoitini yanada yaxshilashga doir zamonaviy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va bu borada ayol-qizlarning moliyaviy va huquqiy savodxonligini oshirish;

4. Ta’lim tizimida, ilm-fan, sport hamda sog‘liqni saqlash sohalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi tafovutlarni tahlil qilish, bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

5. Viloyat ilm-fan sohasida faoliyat olib borayotgan olimlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan innovatsion ensiklopediya yaratish;

6. Uzlaksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, xotin-qizlarni o'qishga bo'lgan imkoniyatlarini doimiy rag'batlantirib borish, ayollarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, texnika va texnologiyaga oid innovatsion g'oyalarni, ixtirochilik takliflarini qo'llab-quvvatlash;

7. Oilada sog'lom turmush muhitini tashkillashga qaratilgan zamonaviy-ijtimoiy loyihalarni yaratish va amaliyotga joriy etish bilan birga milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarga ahamiyat qaratish, mahallalarda psixologik ko'mak tizimini joriy etish, ayollar o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirishga yo'naltirilgan profilaktik tadbirlarni yanada jonlantirish, nikohdan oldingi tibbiy ko'rikning ahamiyati va mohiyatini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish, oilaviy ajrimlarni oldini olishda oiladagi har ikki tomonning javobgarligi va mas'uliyatini oshirish, xotin-qizlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishda ayol mutaxassislarni ko'proq jalb etish, gender tenglik bo'yicha davlat idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash shular jumlasidandir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАСАНОВА НАРГИЗА МАХСАТЖОНОВНА

**УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ,
ЭКОНОМИЧЕСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ В
УЗБЕКИСТАНЕ
(на примере Андижанской области в 1991-2021 годах)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2024

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за номером В2022.3.PhD/Tar402.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.
Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) и информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Собирова Дилфуза Тухтасиновна кандидат исторических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Усмонов Бахриддин Ахмедович доктор исторических наук, доцент Шадманова Санавар Базарбаевна доктор исторических наук, доцент
Ведущая организация:	Наманганский государственный университет


Защита диссертации состоится « 06 » 07 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc. 03/31.12.2020.Tar.60.01. при Андижанском государственном университете. (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университет, 129. Здание факультета Истории Андижанского государственного университета, 1-этаж, аудитория 108) Тел.: (99874)225-73-21; факс: (99874)225-73-21; e-mail: agsu_info@edu.uz. Андижанский государственный университет).


С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирован за №) (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университет, 129, главное здание). Тел.: (99874)223-88-30, факс: (99874) 223-88-30.

Автореферат диссертации разослан « 19 » 06 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 31 от « 15 » 06 2024 года)




Р.Т. Шамсутдинов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор


М.О. Алихожиев
Ученый секретарь научного совета по присвоению ученых степеней, к.и.н., доцент


У.С. Абдуллаев
Председатель научного семинара научном совете по присвоению ученых степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Участие женщин в общественно-политических, экономических и культурных процессах в мировом масштабе является важным фактором социальной стабильности и экономического развития страны, это требует новых подходов к проблеме женщин. Поэтому необходимость дальнейшего повышения социального статуса женщин является актуальной проблемой, и этот процесс можно объяснить возрастающей потребностью женщин в их социальной активности в современном обществе в глобальном масштабе и их статусом в семье и обществе.

В развитых странах мира женщины, интеллектуальный потенциал которых все больше растет, становятся активными субъектами общественно-политических межинституциональных диалогов посредством своего участия во всех сферах жизни общества¹. Сегодня исследованием женских проблем занимаются в ряде научно-исследовательских центрах мира.

В исследованиях комплексно изучаются такие вопросы, как влияние социально-политических и культурно-образовательных фактор на деятельность женщин, женщины в системе высшего образования и их руководящая деятельность, значение и реализация нормативно-правовых документов в деле защиты женщин от различных притеснений и насилия, исламский фактор в формировании духовного мировоззрения женщин.

В обновляемом Узбекистане защита прав и интересов женщин, повышение их статуса в семье и обществе, реализации их способностей, талантов и возможностей, словом, превращению их в равноправных, активных и созидательных членов общества поднято до уровня государственной политики. Говоря словами Президента Ш.М.Мирзиёева «Сегодня каждая женщина должна стать активной и инициативной участницей проводимых в стране демократических изменений, а не быть простым наблюдателем²». Также в Новой Конституции Республики Узбекистан определено, что женщинам предоставлены равные правовые возможности со стороны государства в управлении обществом и государственными делами, а также в других сферах общественной и государственной жизни.

Поэтому вопросы правильного понимания и объективного изучения коренных целей политики по вопросам дальнейшего повышения роли женщин в обществе в годы независимости в Узбекистане, научного исследования участия женщин в происходящих в обществе изменениях и выработки необходимых практических рекомендаций среди вопросов является одним из актуальных вопросов.

¹Golden Gate University (АҚШ), Western Michigan University (США), University of Maryland (США), British Columbia University (Канада), University of Mataram (Индонезия), Women in German Society (Германия), French-Australian Business Womens (Франция), «Женские и гендерные исследования» (Институты социологии РАН и других стран СНГ).

²Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на двадцатом пленарном заседании Сената Олий Мажлиса // [https://nrm.uz/contentf?doc=600968_0%E2%](https://nrm.uz/contentf?doc=600968_0%E2%80%A2)

Диссертация в определенной степени служить претворению в жизнь задач, выдвинутые в Законе № ЗРУ-562 Республики Узбекистан «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» от 2 сентября 2019 года, в Указе № УП-5325 Президента Республики Узбекистан “О мерах по коренному совершенствованию деятельности в сфере поддержки женщин и укрепления института семьи” от 2 февраля 2018 года, в Указе №УП-60 Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «Стратегия развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в Указе № УП-87 Президента Республики Узбекистан “О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин” от 7 марта 2022 года, в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4235 «О мерах по дальнейшему усилению гарантий трудовых прав и поддержке предпринимательской деятельности женщин» от 7 марта 2019 года, в Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-5020 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы поддержки и обеспечения активного участия женщин в жизни общества» от 5-марта 2021-года, в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №703 «О мерах по обеспечению занятости женщин Андижанской области и дальнейшему совершенствованию системы развития среди них предпринимательства» от 21-августа 2009-года и других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследований приоритетам развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями науки и технологий в республике I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-нравственного развития информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. Исходя из характера и сути научной литературы при анализе проблемы целесообразно ее разделить на две группы:

1. Научно-исследовательские работы, осуществленные в Узбекистане за годы независимости;
2. Работы исследователей зарубежных стран.

В годы независимости в Узбекистане в научных исследованиях в области социальных наук на основе новых методологий и взглядов уделялось большое внимание изучению роли и значения женщин в общественно-политических процессах, анализировались роль женщин в семье и обществе, создавались научная литература, диссертации, посвященные теме или ее аспектам. В частности, первое диссертационное исследование о роли женщин в обществе, их общественно-политической активности принадлежит Д. А. Алимовой³. Диссертация ученой была посвящена истории и историографии женского вопроса в Узбекистане, историческим исследованиям, что создало основу для

³Алимова Д. Женский вопрос в советской историографии Средней Азии (20–80-е годы): Авт. дисс. на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1991. – 45 с.

